



## ATTENTION TO THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF TRAINING HIGHLY EDUCATED PERSONNEL IN THE MEDICAL FIELD DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (1992-2017)

**Feruza Atajanova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences*

*Tashkent Medical Academy Urgench Branch*

*Urgench, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** University, hospital, medical center, advanced training, qualified doctors, education system, education, bachelor's degree, quality of education, treatment, pediatrics.

**Received:** 13.05.25

**Accepted:** 15.05.25

**Published:** 17.05.25

**Abstract:** This article examines the attention and opportunities provided to medical universities since independence. Information has been provided on reforms in the development of higher education in Khorezm Province, including the establishment of the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy and the opportunities created there for future doctors, as well as the scientific potential of the branch and the work being done in the spiritual sphere.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TIBBIYOT SOHASIDAGI OLIY MA'LUMOTLI KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA BO'LGAN E'TIBOR (1992-2017 YILLAR)

**Feruza Atajanova**

*dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

*Urganch, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Oliygoh, kasalxona, tibbiyot markazi, malaka oshirish, malakali shifokorlar, ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya, bakalavuriyat, ta'lim sifati, davolash, pediatriya.

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqillikdan keyin tibbiyot oliyohlariga berilgan e'tibor va imkoniyatlar, Xorazm viloyatida oliv ta'limgi rivojlantirish sohasidagi islohotlar, jumladan Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialining tashkil topishi va unda bo'lajak shifokorlarga yaratilgan imkoniyatlar va filialning ilmiy salohiyati va ma'naviy sohalarda olib borilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**ВНИМАНИЕ К РАЗВИТИЮ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ  
ВЫСОКООБРАЗОВАННЫХ КАДРОВ В МЕДИЦИНСКОЙ СФЕРЕ В ГОДЫ  
НЕЗАВИСИМОСТИ (1992-2017)**

**Феруза Атаджанова**

Доцент, доктор философии (PhD) по историческим наукам  
Ташкентская медицинская академия Ургенчский филиал  
Ургенч, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Университет, больница, медицинский центр, повышение квалификации, квалифицированные врачи, система образования, образование. бакалавриат, качество образования, лечение, педиатрия.

**Аннотация:** В статье рассматриваются внимание и возможности, предоставленные медицинским вузам после обретения независимости. Была предоставлена информация о реформах в развитии высшего образования в Хорезмской области, в том числе о создании Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии и созданных там возможностях для будущих врачей, а также о научном потенциале филиала и проводимой работе в духовной сфере.

**Kirish.** Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yosh avlod tarbiysi, ta’lim tizimini, ilm-fan sohalarini yanada taraqqiy qildirish va salohiyatli kadrlar yetishtirib chiqarish davlat siyosatining o‘ta muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. –14-b.]-deya ta’kidlagan edi. Bu borada ta’lim sohasi va ilmfanning rivojlantirilishi masalalarini ko‘rib chiqish, xolisona va tanqidiy tahlil qilish, uni to‘liq ochib berish dolzarb ahamiyatga ega.

Xorazmda tibbiyot instituti bo‘limini ochishdan ko‘zlangan maqsadlar qatorida: yuqori malakali shifokor kadrlarga bo‘lgan talabni qondirish, Orolbo‘yi mintaqasidagi murakkablashib borayotgan ekologiya sharoitida insonlar salomatligini saqlash va muhofaza qilishni ta’minalash, ekologik noxush sharoitning odam tanasiga salbiy ta’sirini mukammal o‘rganish asosida ta’sirli davolash va profilaktika chora-tadbirlari uchun ilmiy mezonlarni ishlab chiqish kabi dolzarb vazifalar turardi.

## **2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi.**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketama-ketlik, xolislik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan.

**3.Tadqiqot natijalari:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirining 1992 yil 20 martdagি 171-sonli buyrug‘iga asosan Urganch bo‘limini Xorazm viloyati o‘rta malakali tibbiyat xodimlari malakasini oshirish bilim yurti bazasida tashkil etish rejalashtirildi. Vazirlik yangi oliy o‘quv yurti faoliyatini tashkil qilishga amaliy yordam berish maqsadida maxsus komissiya tuzdi.

Tibbiyat instituti bo‘limini joylashtirish uchun viloyat agrosanoat va kasb-hunar o‘quv yurtlari boshqarmasi imoratlari, 3-son hunar-texnika bilim yurti binolari bo‘limga ma’muriy va o‘quv binolari sifatida berildi. Urganch shahridagi viloyat 1-son kasalxonasi, poliklinika va dispanserlarda tibbiyat instituti bo‘limi kafedralarini joylashtirish to‘g‘risida buyruq chiqarildi.

Dastlabki — 1992 yilgi qabul natijasida hujjat topshirgan 549 abiturientdan 100 nafari tanlab olindi. Shu bilan bir qatorda Samarqand va Buxoro shaharlaridagi tibbiyat oliy o‘quv yurtlaridan 2-bosqichga taklif etilgan talabalar soni 164 nafarga yetdi.

1993 yildan boshlab qabul imtihonlari test usulida amalga oshirildi. 1993-1994 o‘quv yilida filial tarkibida “Pediatriya” fakul’teti tashkil etildi va uning 2-3-bosqichlari Toshkent va Samarqand shaharlaridagi tibbiyat institutlarida tahsil olayotgan yoshlar hisobidan to‘ldirildi[2].

1994-1995 o‘quv yilida bo‘limda o‘qish istagini bildirib ariza bergen 870 abiturientdan 110 nafari qabul qilindi hamda talabalarning umumiy soni — 453 nafarga yetdi. Maxsus fanlar o‘qitala boshlanganligi uchun yuqori bosqich talabalarini viloyat 1-son kasalxonasi, viloyat va shahar bolalar kasalxonasi, yuqumli kasalliklar, asab va ruhiy kasalliklar shifoxonalari, teri-tanosil, kardiologiya, oftalmologiya, endokrinologiya dispanserlarida tashkil etilgan kafedralarda tahsil oldilar.

Bo‘limda oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi izchil harakatlar davom ettirildi. Keyingi yillarda aksariyat kadrlarni tayyorlash shartnomasi asosidagi to‘lovlar orqali amalga oshirilishiga qaramasdan, talabalar safi kengayib bordi. Agar 1992 yilda bo‘limda o‘qiyotgan talabalar 264 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1993 yilda ular — 380, 1994 yilda — 453, 1995 yilda ular soni — 548 nafarga yetdi[3].

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1995 yil 31 maydagи Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyundagi qaroriga asosan bo‘lim Urganch Davlat universiteti tarkibiga “Tibbiyat markazi” maqomida qo‘sildi[4].

UrDU “Tibbiyat markazi”da 1996 yilda — 600, 1997 yilda — 660, 1998 yilda — 720, 1999 yilda — 763, 2000 yilda — 919, 2001 yilda — 951 talabalar tahsil oldi. 1997 yil iyunida bo‘limni ilk bor tugatgan 146 talabaga (jumladan “Davolash” fakul’tetidan 96 va “Pediatriya” fakul’tetidan 50 nafar) shifokorlik diplomi topshirildi.

Respublika hukumatining 1998 yil 3 iyundagi 239-soni qaroriga asosan Urganch Davlat universitetining “Tibbiyat markazi” qaytadan mustaqil oliy o‘quv yurti sifatida tiklandi va unga

I-Toshkent Davlat tibbiyot instituti filiali maqomi berildi. Natijada poytaxt o‘quv yurtlari bilan uzilib qolayotgan aloqalarini tiklash uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

1998 yil 10 noyabrda Prezident I.A. Karimovning PF-2107-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning Davlat dasturi” tasdiqlandi[5]. Uni amalga oshirishga kirishilgan bir vaqtida filiali direktori etib, tibbiyot fanlari doktori B.A. Do‘schanov tayinlandi.

2002 yil 1 oktyabrdagi bo‘limda 1004 nafar talaba o‘qiyotgan bo‘lib, ularning 555 nafari “Davolash” va 449 nafari “Pediatriya” fakulxetlarida tahsil oldilar. 2002 yilga kelib bo‘limni muvaffaqiyatli tugatgan yosh shifokorlar soni 608 nafarga yetdi. Bo‘limni tugatgan yosh shifokorlarning aksariyati Xorazm viloyati va qo‘snni Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi davolash va profilaktika muassasalarida ish boshladilar. Shu bilan bir qatorda ularning 100 nafardan ortig‘i klinik ordinaturada o‘qishni davom ettirdi, 30 nafari esa Respublikaning markaziy tibbiyot institutlari magistratiga qabul qilindi.

Bo‘lim rahbariyatining sa’y-harakatlari bilan 10 yilda bo‘lim o‘qituvchilarining 90 foizi Respublika malaka oshirish kurslarida o‘z bilim va kasb mahoratlarini oshirishga erishdilar. Keyingi yillarda bo‘limning professor-o‘qituvchilari respublikadan tashqarida, xususan AQSh, Rossiya va Ukrainada malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Prezidentning 2003 yil 26 fevraldagagi “Sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3214-sonli Farmoni amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning jadallashtirilishiga qo‘srimcha imkoniyatlar yaratdi. Yangi pog‘onaga ko‘tarilishi ko‘zlangan tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishda malakali shifokorlarning ham beqiyos katta xizmatlari bor. Ularni tayyorlash uchun esa, mamlakatimizdan tashqari, dunyo tajribasini ham chuqur o‘rgangan va tahlil qilgan holda, ta’lim sohasini jadal rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Davr talabiga aylangan mazkur holat yangi oliy o‘quv yurtlarini ochish va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yanada yuqori - sifat bosqichini ta’minalashni talab qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 19 iyuldagagi “Toshkent tibbiyot akademiyasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PF-3629-sonli Farmoni asosida yangi o‘quv yurti tashkil etildi. Unga baza sifatida Respublika Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 29 iyuldagagi 178-sonli qarori bilan bekor qilingan 1-2-Toshkent Davlat tibbiyot institutlari binolari va asbob-uskunalari berildi. Akademiya rektori lavozimiga taniqli jarroh, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, “Do‘stlik” ordeni sohibi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va Rossiya Tibbiyot Fanlar akademiyasi akademigi, 10 yil davomida Respublika sog‘liqni saqlash vaziri lavozimida ishlagan tibbiyot fanlari doktori, professor Sh.I. Karimov tayinlandi[6].

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari soni 4662 nafar bo‘lib, ularga 803 professor-o‘qituvchilar, shu jumladan — 2 nafar akademiklar, 176 — fan doktorlari, 97 — professorlar, 176 — fan doktorlari, 396 — fan nomzodlari, 183 — dotsentlar, 357 — assistent saboq berardilan. Kadrlar ilmiy salohiyati — 70, 2%ni tashkil qilardi. Yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash 58 ta kafedrada amalga oshirilib, OSKE markazida 2 ta o‘quv laboratoriyasi, jamoat salomatligi maktabi, axborot-zaxiralari markazi, stomatologiya majmualari, 2 ta qishloq vrachlik punktlari modullarida amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish tashkil qilingan][7].

Yangi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida Toshkent tibbiyot akademiyasi filiali sifatida o‘z faoliyatini davom qildirgan jamoa o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishni davom ettirdi. Uning asosiysi esa — zamon talablariga javob beradigan va aholiga sifatli tibbiy yordam ko‘rsata oladigan yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan malakali umumiylot shifokorlari va oliy malakali hamshiralarni tayyorlashdan iboratdir.

Filialda yuqori malakali shifokorlarni tayyorlash va sog‘liqni saqlash muassasalariga joylashtirish, klinik ordinatoryni o‘qitish ishlari davom ettirildi. “Marketing” bo‘limi xodimlari sa’y-harakatlari bilan 2009-2010 o‘quv yilida filialni bitirgan 171 nafar (83 nafari davlat granti asosida, 88 nafari to‘lov kontrakt asosida)talaba 100 % ish bilan ta’minlandi[8].

Filial talabalari va professor – o‘qituvchilarining bilimi va malakasini oshirishda 1992 yildan tashkil qilingan “Tillar” kafedrasi ham muhim rolъ o‘ynadi. Ular talabalarning horij adabiyotlaridan foydalanish, o‘qituvchilarining nomzodlik imtihonlariga tayyor darajasiga erishish uchun tinmay harakat qildilar.

2012-2013 o‘quv yilida fakulitetni bitirib, imtiyozli diplom olgan talabalardan 9 (62 %) nafari respublikaning turli tibbiyot oliygohlarining magistraturasiga va 5 (38 %) nafari klinik ordinaturasiga kirdilar. 2013-2014 o‘quv yilida fakulitetda 483 talaba tahsil oldi. Ularning 59 (12, 2 %) nafarini dekanat tarkibiga kiritilgan tibbiy pedagogika kasbiy yo‘nalishi vakillari tashkil qiladi[9].

2014-2015 o‘quv yilida “Davolash” fakulitetida 385 nafar, “Pediatriya” fakulitetida 378 nafar, “Oliy hamshiralik ishi” yo‘nalishida 101 nafar, “Tibbiy pedagogika” yo‘nalishida 77 nafar talaba tahsil oldi. Ularga 185 nafar professor-o‘qituvchi (asosiy stavkada – 143 va o‘rindosh – 42), jumladan 17 nafar fan doktorlari (14, 2 %) va 52 nafar fan nomzodlari (36, 1%), 36 nafar dotsent, 13 nafar katta o‘qituvchi, 108 assistentlar saboq berdilar. Professor-o‘qituvchilarining 52, 9 foizi davolash va 47, 1 foizi pediatriya fakuliteti kafedralarida ishladi. Ishchi-xizmatchilar soni — 170 nafarni tashkil qildi. Jamoa a’zolarining o‘rtacha yoshi — 43, 5 ga teng edi[10].

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining 2010 yil 2 iyuldagagi 202-soni buyrug‘iga binoan o‘quv-uslubiy yordam berish maqsadida filialga Urganch va Xiva tibbiyot

kollejlari hamda Hazorasp akademik litseyi berkitildi. Shu bilan bir qatorda filial jamoasi viloyatdagi 19 ta QVPga amaliy yordam ko‘rsata boshladi.

Filialning o‘z klinik bazasi bo‘limganligi sababli viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (SSB) yordamida 13 ta klinik kafedralar Urganch shahridagi poliklinika va shifoxonalarda joylashtirilgan. “Davolash ishi”, “Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishlarining 6–7 kurs talabalariga o‘tkazilayotgan amaliy mashg‘ulotlarning 85 foizi Urganch shahridagi poliklinika va dispanserlar, Urganch tumanidagi “Chotko‘pir”, “G‘oybu”, “Paxtakor”, “G‘alaba”, Yangibozor tumanidagi “Uyg‘ur”, Yangiariq tumanidagi “Ostona” qishloqlarida joylashgan qishloq vrachlik punktlarida olib borilmoqda[11].

2012 yilda filialda UASH tayyorlash uchun QVP moduli tashkil qilindi va undagi 11 ta xonada 20 fandan 70 dan ortiq mavzuda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. Filialda faoliyat ko‘rsatayotgan Markaziy Uslubiy Komissiya (MUK) nashrga tayyorlangan ilmiy va uslubiy ishlarni ekspertizadan o‘tkazishga yordam bermoqda. Kafederalarda barcha o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha namunaviy dasturlar mavjud. Ular asosida ishchi dasturlar tuzilgan va ular sharoitga qarab yangi ma'lumotlar bilan to‘ldirilib boriladi. 2015 yildan filial QVP moduli binosida UASH vrachlarining malakasini oshirish bilan bir qatorda bemorlarni qabul qilish ishlari boshlandi.

Filialni tugatgan yosh shifokorlarning aksariyati Xorazm viloyati va qo‘shti Qoraqalpog‘iston Respublikasi davolash muassasalarida ishlamoqdalar. Shu bilan bir qatorda ularning 100 nafardan ortig‘i klinik ordinaturada o‘qishni davom qildirdi, 30 nafari esa Respublikamizning markaziy tibbiyot institutlari magistraturasiga kirdilar. O‘tgan yillar davomida filialni tugatgan 10 dan ortiq vrachlar nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar[12].

2002-2003 o‘quv yilida filialda mavjud kafedra va kurslarda 150 dan ortiq yuqori malakali professor-o‘qituvchilar talabalarga yuqori saviyada bilim berdilar. Ular orasida 14 nafarfandoktorlariva 46 nafarfannomzodlari bor edi. Bu davrga kelib filialda ishlab doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan mutaxassislar soni ortib bordi.

1994 yildan boshlab filialda klinik ordinatorlarni tayyorlash ishlariga kirishildi. Shu yiliyili grant asosida 16 nafar, 1995 yilda — 4, 1996 yilda — 4, 1997 yilda — 9, 1998 yilda — 12, 1999 yilda — 12, 2001 yilda — 21 va 2002 yilda 17 oliy ma'lumotli vrachlar ordinaturada tahsiloldilar. 1998–2002 yillaroralig‘ida 19 nafarvrachlar kontrakt asosida klinik ordinaturanitugatdilar. Natijada filial klinik ordinurasinitugatgan 115 nafar mutaxassislardan 18 nafar io‘qituvchi sifatida ishga taklif qilindi va qolganlari esa viloyatning shahar va tuman shifoxonalarida amaliyo tibilan shug‘ullanadilar[13].

Talabalarga ta’lim-tarbiya berishda “Ustoz–shogird” tizimi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda guruh murabbiylari talabalarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishda individual shug‘ullanadilar. Filialda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini

amalga oshirishda jamoaviy usuldan, ya'ni filial rahbariyatining talabalar bilan, hamda talabalarning ota-onalari bilan bevosita uchrashuvlar reja asosida yo'lga qo'yilgan.

2014-2015 o'quv yilida filialdagi barcha talabalar 98 ta guruhlarga ajratilgan bo'lib, ularga 70 nafar professor-o'qituvchi murabbiylik qildi. O'qituvchilar har haftaning juma kuni o'tkaziladigan "Axborot soatlari"da dolzarb mavzularda muloqotlar uyushtiradilar.

Oilali talabalar va ularning farzandlariga, turmush darajasini hisobga olgan holda, moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatildi. Ijtimoiy himoya sohasiga oid qonunchilik asoslarini talabalar o'rtaida tushuntirish yuzasidan soha xodimlari ishtirokida suhabatlar uyushtirildi. "Mehribonlik uyi", "Qariyalar uyi"da yashayotgan mehr va muruvvatga muhetoj bolajonlar va keksalarga moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatildi.

Urganch shahri Navoiy ko'chasidagi 240 o'rinlik "Talabalar uyi"da barcha zarur sharoitlarni yaratish masalasi rahbariyatning doimiy diqqat markazida turadi.

Jami 500 kishiga xizmat qilish imkoniyatiga ega 2 ta talabalar oshxonasida arzonlashtirilgan narxlarda sifatli taomlar tayyorlashga erishildi.

Ma'naviyat va bilim o'chog'i sifatida filial kutubxonasining faoliyatiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Dastlabki yillarda filial kutubxonasi ma'muriy binoda joylashgan bo'lib, unda 30 o'rinlik kichik o'quv zali bor edi. 1998 yilda kutubxona asosiy o'quv kafedralari joylashgan yangi binoga ko'chirildi. Natijada yangi joyda kitoblarni saqlash xonalari, 2 ta o'quv zali va uning "Talabalar uyi"dagi bo'limi tashkil etildi. Rahbariyatning tinimsiz amalga oshirgan chora-tadbirlari natijasida filial kutubxonasidagi kitoblar soni yildan yilga ortib bordi. 1992 yilda kutubxona fondidagi kitoblar soni 5644 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1993 yilda — 12016, 1994 yilda — 14882, 1995 yilda — 16537, 1996 yilda — 16853, 1997 yilda — 17028, 1999 yilda — 21886, 2000 yilda — 25645, 2001 yilda — 29899, 2002 yilda — 34061, 2003 yilda 39500, 2004 yilda 43500 taga yetdi[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan 2006 yilda tashkil etilgan Axborot resurs markazlari (ARM) qatori filial kutubxonasiga 14 ta yangi rusmli kompyuterlar o'rnatildi va noyob adabiyotlarning sonini nusxa ko'chirish orqali ko'paytirish ishlari boshlandi. Kutubxona kitoblar fondi boyitib bordi. Xususan, 2005 yilda ular soni — 46890, 2006 yilda — 50704, 2007 yilda — 51004, 2008 yilda — 53575, 2009 yilda — 54109, 2010 yilda — 55074, 2011 yilda — 55988, 2012 yilda — 57034, 2013 yilda — 57232 va 2014 yilda — 57770 tani tashkil qildi. Kitobxonlar soni esa — 3216 nafarga yetdi[15].

#### 4. Xulosa

Xorazmda tashkil etilgan yuqori malakali shifokorlar tayyorlash markazi tarixi nisbatan qisqa davrni o'z ichiga olsada, jamoa a'zolari aksariyatining sa'y-harakatlar natijasida yorqin izlar

goldirildi. Ulardan eng muhimi — filialni tugatgan sal kam 3 mingga yaqin yosh va malakali shifokorlar xalq sog‘ligini saqlashdek sharaflı ishda kamarbasta bo‘lib kelmoqdalar.

Filialda ishlayotgan professor-o‘qituvchilar jamoasi shakllandi, 47ularning ilmiy-pedagogik salohiyati sezilarli darajada oshdi. Natijada professor o‘qituvchilar tarkibidan 14 nafar fan doktorlari va 50 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlandi. Ular orasida filialni tugatgan 20 dan ortiq yosh shifokorlarning ham o‘rni bor edi[16].

Bugungi kunda Respublika hukumati tomonidan filialning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 50 mldr. so‘mdan ortiq mablag‘ evaziga Urganch shahridagi sobiq “Jayhun” majmuasini o‘quv binosiga moslashtirilib, qayta ta’mirlanmoqda. Filial jamoasi o‘z navbatida bildirilayotgan ulkan ishonch va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikka javoban yanada mas’uliyatli va fidoyilik bilan mehnat qilishga doimo tayyor turdi.

Tibbiyot Akademiyasi Urganch filialida 2017-2018 o‘quv yilida 200 talaba shartnoma asosida, 61 talaba esa davlat grantlari asosida o‘qishga qabul qilindi. Shu o‘quv yilida 85 talaba shartnoma asosida, 56 talaba davlat granti asosida oliygojni bitirgan. Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan talabalarning 35, 9 foizi qiz bolalar, 64, 1 foizini esa o‘g‘il bolalar tashkil qilgan. Oliygojni 2017 yilda bitiruvchilarning 141 tasi o‘g‘il bolalar, 73 tasi qiz bolalardir. 2017 yilda oliygonda 12 ta fan nomzodi, 2 ta dotsent ilmiy faoliyat olib borgan.

Respublikadagi oliy ta’lim sohasidagi islohotlar aynan filialning yangi siyosiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishini nazarda tutmoqda. Shu bilan birga TTA Urganch filialida ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligiga xolisona baho berish, ta’lim sifati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish kabi vazifalarni hal qilish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги олий ўқув юртларини ташкил этиш тўғрисида”ти ПФ-356-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992, 4-сон, 206-модда. Электрон ресурс.
2. Ўзбекистон Республикаси илмий-техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви (ЎзР. ИТТҲ МА), 395 жамғарма, 1-рўйхат, 25-иш, 3-варак.
3. ЎзР. ИТТҲ МА), 395 жамғарма, 1-рўйхат, 25-иш, 4-варак.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2004, 9-сон, 104-модда; 2006, 27-сон, 246-модда; 2009, 25-сон, 282-модда; 2017, 11-сон, 152-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2005, 28-29-сон, 205-модда

// <https://lex.uz/docs/659606>.

6. Маҳмудов М. Хоразмда шифокорлар тайёрлаш маркази. -Урганч, 2025. - Б. 7-24.
7. Ўзбекистон Республикаси илмий-техника ва тиббиёт ҳужжатлари Миллий архиви (ЎзР. ИТТҲ МА), 395 жамғарма. Статистика маълумотлари , 06.07.2011 йилдан бошлаб.
8. ЎзР. ИТТҲ МА), 395 жамғарма. Статистика маълумотлари , 06.07.2011 йилдан бошлаб.
9. Хоразм вилояти давлат архивининг Ташкилотлар ҳужжатларини тартибга келтириш бўлимининг 2017 йил 16 августдаги маълумотномаси.
10. Хоразм вилоят статистика бошқармаси Ижтимоий соҳа статистикаси бўлими. Электрон ресурс. – 1, 3, 5-8 вараклар.
11. Тошкент тиббиёт академияси Илмий бўлими маълумотлари.2024 йил